

O'QUVCHILARNING BOG'LANISHLI NUTQINI MATN VOSITASIDA SHAKLLANTIRISH METODLARI

Olimjon Eshimbetov

Ajiniyoz nomidagi NDPI katta o'qituvchisi pedagogika fanlari bo'yicha falsafa fanlari doktori
PhD.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15572395>

Annotatsiya. O'quvchilarda matn vositasida o'quvchilarning nutq o'stirish bilan bog'liq bo'lgan mashg'ulotlar izchiligi borasida tavsiyalar. Turli xil interaktiv o'yinlar va ularni ta'lim jarayonida maqsadli qo'llashning interaktiv jihatlari tadqiq qilindi. ayniqsa, matn vositasida o'quvchilarning bog'langan nutq malakasini rivojlantirish usullariga alohida e'tibor berildi.

Kalit so'zlar: Matn, nutq, ko'nikma, tahlil, metod, tasavvur, interaktiv, pedagogik texnologiya, tallafuz, talqin, so'zlash malakasi, bayon qilish madaniyati, og'zaki hamda yozma nutq.

O'quvchilar nutqini ularning tafakkuridan ajratib tasavvur qilib bo'lmaydi. Nutq tafakkur negizida shakllanib, takomillasha boradi. Bu pedagogik tajribada sinalgan hodisadir.

Qoraqalpoq sinflarida ta'lim oluvchi o'quvchilarning o'zbek tilida erkin va bejirim gapira olishi, yoza bilishi, muloqot qilishi asnosida so'zlarni bexato talaffuz qilishi ko'p hollarda o'qituvchining masalaga sistematik yondashuviga bog'liq bo'ladi.

Muloqot – inson ruhiy-ma'naviy dunyosining mahsuli. Muloqot kishilik jamiyatining muhim asosi. Usiz hech bir ijodiy sifat yuzaga chiqmaydi. O'quvchi o'z talaffuzi bilan qay darajada masalani o'zlashtirib borayotganini anglab, o'zi haqida o'ziga baho berib boradi.

O'zbek tili darslari, bolalar nutqini, lug'at boyligini boyitishga samarali yordam beradi, nutqni tuzishni o'rgatadi.

Umuman, ta'lim qoraqalpoq tilida olib boriladigan maktablarda o'quvchilar bog'lanishli nutqini tartibli tashkillashtirish uchun o'qituvchidan mas'uliyat va matonat talab qilinadi. Zero, nutqiy ko'nikma, mahorat, sohaning yangiliklaridan, pedagogik tavsiyaviy xarakterdagi ko'rsatmalardan yaxshi xabardor bo'lish ham yaxshi samara beradi. Zotan, aqliy va hissiy faoliyat bir-birini to'ldiruvchi ikki inson xususiyatlaridir. Aytish joizki, rang-tasvir va amaliyot ishlari bilan uzviy olib borilsa, natijada bola nutqi teranlashadi. So'zni talaffuz qilishga odatlanishadi. Mantiqiy fikrlash tarzi rivojlanadi. Olamdagi hodisalarga baho berishda teranlashadi. Negaki, oilada olib bo'lgan ta'lim (og'zaki suhbat)ni maktabda kundalik faoliyatida qo'llaydi. Shuning uchun bolalarning yosh va fikrlash xususiyatiga qarab ta'lim berishni yo'lga qo'yish lozim.

Maktablarda juda ko'plab muammolar bor. Vaqt esa tig'iz hamda kamlik qiladi. 20 ta o'quvchining o'rniga 35 nafar o'quvchi ta'lim olishadi. Xo'p, natija va sifat ko'rsatgichi qanday oqibatlarga olib kelishini o'zingiz o'ylab ko'rishingiz mumkin.

DTSda "Bolajon" tayanch dasturida badiiy adabiyotning muhim natijalarni berishi kiritilgan. Zero, badiiy adabiyot bolalarning monologik va dialogik nutqini o'stirishda muhim atribut sanaladi. Misol tariqasida, istaymizmi yo'qmi, inson jim turgan paytida o'z-o'zi bilan muloqot olib boradi.

Bolalar-chi? Bolalar esa tasavvur va xayolot olamida benihoya kengliklarga sayr qiladi.

Adabiy ertak qahramonlari kabi – mard, jasur, olijanob, vatanparvar, iqditirol, kashfiyotchi, mohir uchuvchi singari o‘zida ichki qoniqish hissini shakllantiradi.

P.f.n., dots. L.Mirjalolova shunday yozadi: “Nutqning tovush madaniyatini shakllantirish bolalarning bog‘lanishli nutqini rivojlantirishda muhim o‘rin egallaydi. Maktabgacha yoshdagi bolalar ko‘pincha s-z, p-f, t-d, p-b, u-o‘, x-h, q-g‘ tovushlarini talaffuz qilolmaydilar. Nutq jarayonida ketappan – ketyapman, Hojaxon – Shohjaxon, Yo‘stam – Rustam, qalg‘a – qarg‘a kabi talaffuz etishda yo‘l qo‘yadigan xatoliklarning oldini olish, ya‘ni to‘g‘ri talaffuz etishga yo‘llash, ovoz balandligiga, tovush sur‘atiga e‘tibor berish metodik jihatdan muhim ahamiyatga ega. Ba‘zi bolalar o‘zidan kichiklarni jerkib, ovozin ko‘tarib muomala qiladilar. Shunda ular talaffuziga e‘tibor qaratish, nutq madaniyatiga, me‘yorda so‘zlab, muomala qilishga o‘rgatish zarur. Chunki bolalikda tarkib topgan muomala madaniyati inson umrining oxirigacha muhrlanib qoladi” [1]. Darhaqiqat, bolalarning monologik nutqini maktab ostonasiga ilk qadam kungacha ham rivojlantirish muhim vazifalar sirasiga kiradi. Aynan mana shu ta‘lim bola nutqini yanada rivojlantirish uchun muhim taomillardan biri sanaladi. Bog‘langan nutq murakkab jarayon sanalib, u ichki qatlam va shamoyillar mushtarakligini dalolatlaydi. SHaxsni yuksak insonparvarlik hamda vatanparvarlik hissida tarbiyalash, mAnaviy-mArifiy ilg‘amni yetakchi o‘ringa k‘otarish, tahlil teranligi va tasvir tiniqligini markazlashtirish istiloh tabiatini tavsiflaydi.

Shu mAnoda, badiiy nutq mohiyati o‘g‘zaki va yozma bayon mushtarakligini birlashtiradi.

Unda material mohiyati va xarakteri maqsadga uyushadi. Uyushiq Azolar tizimi mantiqiy bosqichlarni boshqaradi. T‘og‘ri, matn tanlovi mutaxassis tayyorgarligi, bosqich va qismlar orasidagi munosabat aloqadorligi, mutolaa va yozuv ziddiyatini umumlashtirishni maqsad qilib q‘oyadi.

Negaki, matn – ijodiy yondashuv samarasi, unda anglash o‘ziga xosligi hamda o‘zlashtirish falsafasi bir-biri bilan konfliktga kirishadi. Binobarin, odamzod bilim saviyasi muntazam o‘qishni mAqul k‘oradi. Matn esa, o‘z navbatida, nazariy mAlumotlarni tashkil etadigan majmua hisoblanadi. Har bir avlod oldida insoniyat yaratgan bilimlarni o‘rganish va o‘zlashtirish vazifasi turadi. Jamiyat taraqqiyotini hayotning takomillashuvini shuningsiz tasavvur qilib b‘olmaydi.

Bunga erishishning birdan-bir y‘oli yosh avlodning o‘qish va bilim k‘onikma va malakasini shakllantirishdir. Hadislarda «Beshikdan to qabrgacha ilm izla», deyilishida judda katta hikmat bor. Ilm bobidagi izlanish va intilishlar insonni manaviy jihatdan o‘stiradi, axloqiy barkamollikka eltadi. SHuning uchun ham bizning davrimizda xalq ta‘lim tizimiga, yoshlar ma‘naviyatining muhim bir manbai sifatida katta e‘tibor berilmoqda.

O‘qishda malakasizlik, o‘qish madaniyatini bilmaslik har qanday o‘rganish jarayonini tinkani quritadigan o‘g‘ir mehnat va majburiyatga aylantiradi. O‘qish va o‘rganish malakasi muayyan darajada shakllangan kishi uchun esa, ushbu faoliyat zavq beradigan ijodiy faoliyatga aylanadi. Qiynayotgan ishning samaradorligini tAminlaydi.

Maktab adabiy ta‘limning turli bosqichlarida o‘quvchilarni badiiy matn ustida ishlashga o‘rganishning maqbul usullari va shakllaridan foydalanish, shu jarayonda badiiy-estetik tushuncha va zavqni tarbiyalash, ularni kitobxonlikka o‘rgatish kabi muammolar, (u) metodist olimlarning doimiy diqqat markazida b‘olib kelayotgani ham xuddi shu sababdandir.

Barcha sinf mashg‘ulotlarida, shu jumladan ona tili darslarida ham tilni amaliy jihatdan o‘zlashtirib olinadi.

Óquvchilar ertaklar aytadilar, óqiganlarini qayta hikoya qiladilar, matn tuzadilar, uydagi va maktabdagi ishlari haqida, óyinlari, atrofdagi hayot haqida sózlaydilar, ayrim narsalarni, voqea-hodisalarni muhokama qiladilar. Dastlabki vaqtda óquvchilar óqiganlari yoki rasm asosida, shaxsiy kuzatuv va taassurotlari asosida qilgan ishlari va sayohatlar tógrisida, ba'zan ózlariga yaxshi tanish bólgan predmetlarni tasvirlab, kichik mustaqil hikoya, matn tuzadilar.

«Nutq óstirish bilan bog'liq bólgan mashg'ulotlar izchil, doimiy ravishda ótkazib borilmasa, ta'limning yaxshi, sifatli bólishiga, óquvchilarning madaniy nutqini egallashlariga erishib bólmaydi. Shunga kóra, darsda nutq óstirishni takomillashtirib borish, boshlang'ich sinflar ishini órta sinflar ishi bilan, órta sinflar ishini yuqori sinflarda amalga oshiriladigan ishlar bilan bog'langan holda davom ettirish óqituvchi zimmasidagi muhim vazifalardan biri hisoblanadi» [2].

Nutq óstirish tafakkurni óstirish demakdir, chunki nutq tafakkur bilan chambarchas bog'liq. Bolaning fikrlash qobiliyatini óstirishga e'tibor bermay turib, nutqni óstirish mumkin emas. Óqituvchining muhim vazifasi bola fikrining mazmunli, mantiq jihatdan tóg'ri va izchil bólishiga g'amxórlík qilishdir. Óqishni hayot bilan bog'lash, atrof-muhitni kuzatish, uni órganish jarayonida óquvchi nutqi ustida ishlash, bolani turli bilimlar bilan boyitish nutqni mazmunli qilishning eng asosiy vositalaridir.

QIZIQ TADQIQOT

(E'tiborli bo'ling)

Biz jonli tabiatning bir bo'lagimiz. Atrofimizni o'rab turgan olam bizning ehtiyojlarimizga xizmat qiladi. Biroq inson yashashi uchun zarur bo'lgan suv, toza havo, elektr energiyasi (***) kabilar bitmas-tuganmas deb o'ylamang. Siz atrofga e'tiborli bo'ling. Insonlarning atrof-muhitga munosabati qanday ekanligini bilish uchun mutaxassislar kichik tadqiqot – kuztuv o'tkizishbdi. O'quvchilar har kuni qatnaydigan yo'lak, o'qiydigan joylarda barg-(***)larni yoqib qo'yishibdi, suv tushadigan jo'mraklarni atayalab ochib qo'yishibdi, kuduz kuni elektr chiroqlar ham yoqib qo'yilibdi. Bir kun davomida o'quvchilarning bu holatga munosabatini kuzatishibdi.

Ertasi kuni o'quvchilarni yig'ib ularga bo'lgan voqea haqida mAlum qilishibdi. Hech kim qancha mashaqqat bilan tortib kelingan ichimlik suvi isrof bo'layotgani, biror kimsa havoning ifloslanayotganidan bezovta bo'lmagani, ota-onalarining qiynalib to'layotgan soliqlari hisobiga ishlab chiqilayotgan elektr energiyasining behuda sarf bo'layotganiga ham hech kim diqqat qilmaganini aytishibdi. Hamma e'tiborsizligidan xijolat bo'libdi.

Mutaxassislar birozdan vaqtdan so'ng yana kuzatuv o'tkazishibdi. Endi o'quvchilar tutab yotgan xazonlari o'chirib, oqizib qoyilgan toza suv jo'mraklarini yopib, keraksiz paytda yoniq turgan elektr chroqlarini o'chirib qo'yishyotgani mAlum bo'lgan.

Qadrli o'quvchilar! Doim e'tiborli va tejamkor bo'ling. Tabiat ne'matlarini va o'zgalar mehnatini qadrlashni o'rganing!

Tillarning o'ziga xos xususiyatlariga tayanish lingvistik va didaktik talablarga javob beradigan yangi avlod darsliklari va metodik adabiyotlarni chop etish o'zlashtirishda yuqori samara beradi, shuningdek, o'quvchilarning bog'lanishli nutqini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Maqollar bu borada o'qituvchida katta yordam beradi:

“Bir maqtanchoq g'oz bor ekan. U g'oz har kuni odamlar oldiga kelib, maqtanaverar ekan. Bir kuni yana maqtanib:

– Men osmonda uchaman, suvda suzaman, erda chopaman, – debdi.

Bir dono odam kelib g‘ozdan: – Osmonda uchganingda sen burgutdek ucha olasanmi? – deb so‘rabdi.

G‘oz: – Yo‘q, – debdi.

Dono odam: – Suvda suzganingda baliqdek suza olasanmi? – debdi.

G‘oz: – Yo‘q, – debdi.

Dono odam yana: – Erda chopganingda otdak chopa olasanmi? – debdi. G‘oz:

– Yo‘q, – debdi. SHunda odamlar kulishibdi:

– Hay, maqtanchoq g‘oz, hunaring oz! – deb urib, quvib yuboribdilar.

Xulosa: ba’zi odamlar ham xuddi shu g‘ozdek ko‘p maqtanib, dakki eydi” [3].

Bog‘lanishli nutqni rivojlantirish metodikasining mazmuni o‘zida mazmunli va ta’sirchan nutqni talab etib, adabiy til me’yorlariga asoslangan semantik va strukturaviy butunlikni o‘zida mujassam etadi.

REFERENCES

1. Mirjalolova L. Maktabgacha yoshdagi bolalarning monologik nutqini o‘stirish. –T.: NDPU. Uslubiy ko‘rsatmalar2015. –B.7-8.
2. Hotamov A., Zunnunov N. Adabiyot o‘qitish metodikasi.-T.: 1992.–B 268.
3. 12.O‘zbek xalq ertaklari. <https://ziyouz.uz/ozbek-xalq-ogzaki-ijodi/ozbek-xalq-ertaklari/>